SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 8 (3) - 2023

# ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

# ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

**ISSN:** 2181-1342 (Online)

**Сайт:** https://scienceproblems.uz

**DOI:** 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

## *№ 8 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

**Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**


*Воҳидова Комила Абдуллозизовна*
“ЭЛ БАЙРОҒИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА ........ 11-17

*Сулайманов Саламат Арепбаевич*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) ........ 18-24

*Раупов Холмамат*
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ ........ 25-32

*Мажидов Анвар Сиражович*
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) ........ 33-40

*Begamova Nasiba Xolmurzayevna*
FERMER XOʻJALIKLARI VA KLASTER TIZIMI UCHUN OʻRTA MAʼLUMOTLI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA) ........ 41-48

*Алланазаров Мурот Мирзаевич*
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА ........ 49-54

*Ismoilova Feruza Ibragimovna*
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI XIZMATLARI ........ 55-59

*Tursunov Xurshid Nasriddinovich*
OʻZBEKISTONDA MUSTAQILLIK  YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI ........ 60-64


**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**


*Yuldosheva Gulnoza Abdinabiyevna*
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF ENTERPRISES ........ 65-70

*Oromidinov Muzaffar Pardabayevich*
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS ........ 71-75

*Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ........ 76-84

*To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li*
KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR ........ 85-92

*Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich*
MINTAQADA XIZMAT TURLARIDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI ........ 93-98

*Turobov Sherzod Alisherovich*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI ........ 99-105

*Шамсиев Нодир Муратович*
МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ ........ 106-110

*Zaripova Moxira Zarip qizi*
AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI ........ 111-114

*Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич*
ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ ........ 115-121

*Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi*
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI ........ 122-127

*Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи*
МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 128-137

*Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Ғаффор Аллақулович*
ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ ........ 138-150

*Мамадиёров Олимжон Умарович*
ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ........ 151-158

*Раббимов Жахонгир Эшбоевич*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ ........ 159-164

*Кулибоев Азамат Шоназарович*
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ ........ 165-174

*Гадоев Сўҳроб Жумакулович*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ ........ 175-181

*Бекжанов Дилмурад Йўлдашович*
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ ........ 182-193

***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Boydadayev Abdurroxmon Tolibjon o'g'li*
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) ........ 194-200

*Xayridinov Abbosxon Anvarovich*
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLISHDA MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 201-205

*Quramboyev Alisher Maxsudovich*
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI ........ 206-211

*Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich*
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR MAQSADI ........ 212-217

*Turabova Sevara Kattaqulovna*
ILMIY BAHS FENOMENINING MANTIQIY– GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV ........ 218-224

*Пардаева Марҳабо Давлатовна*
АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ ҒОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ ........ 225-233

*Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich*
NIKOH MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI ........ 234-240

*Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna*
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR ........ 241-246

*Юсупова Феруза Зойировна*
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИНИНГ МЕЗОНИ ........ 247-251

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI ........ 252-257

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Soatova Nodira Isomitdinovna*
LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIIY IFODASI ................................................258-265

*Narmuratov Zayniddin Radjabovich*
FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA ..........................................266-269

*Yusupova Omina Muhammadzoir kizi*
DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE ..........................................................................................................................270-276

*Бозорова Хулкар Одинакуловна*
РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ..........................................................................277-282

*Matyakubov Oybek Quralbayevich*
KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI ....................................................283-288

*Фатуллаева Камола Рахматуллаевна*
ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ ................................................289-293

*Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna*
O‘ZBEK TILIDA KAUZATIV FE’LLARNING YASALISH USULLARI ..........................................294-299

*Xamzayev Otaxon Erkinovich*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI ........................................................................................................................300-305

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Абдурахманова Нодирахон*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ ........................................306-310

*Сафоева Садокат Мусоевна*
ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА ..........................................................311-320

*Абдуллаева Маликабону Эркин қизи*
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ ...............321-330

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Zoirova Lola Xamidovna*
TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA “INSON ORGANIZMINING RADIATSIYAGA SEZGIRLIGI” MAVZUSINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH ........................................................................................................................................331-336

*Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich*
KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA) ........................................................................................................337-343

*Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li*
YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH ....................344-349

*Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi*
ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS ........................................................................................................................................350-355

*Джумаева Хулкархан Мухаммаджоновна*
ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..356-361

*Islomova Madina Asqarovna*
INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ...........................362-368

*Raxmatova Mexrinoz Majitovna*
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ........................................................................................................................................369-373

*Абдукаюмова Наргиза Райимовна*
ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ–ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ ...............................................................374-384

*Norboyev Farxod Chorshanbiyevich*
KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR .....................385-390

*Borasheva Aybolgan*
EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING .........................391-398

*Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna*
KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHA SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQIY TAHLILI ........................................................................................................399-409

*Boboraximov Sanjar Malikjanovich*
MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR ..........................................................................................410-414

*Salimova Shahlo Sayfulloyevna*
XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI ....................................................415-421

*Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi*
METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS ........................................ 422-427

*Xamroyev Samijon Salimovich*
SPORT TO‘GARAKLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI ........................................ 428-433

*Kattaeva Feruza Shakirovna*
DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD ........................................ 434-441

*G‘ofurov Azizbek Umarjonovich*
BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ........................................ 442-447

*Abduraximova Umida Shuxratovna*
BO‘LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ........................................ 448-454

*Obidova Gulmira Kuzibaevna*
INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR ........................................ 455-460

*Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna*
PROFESSINAL TA’LIM YO’NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O‘QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH ........................................ 461-469

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 8 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*07.00.00 – Тарих фанлари*

**Ismoilova Feruza Ibragimovna,**
Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

## URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI XIZMATLARI

**Annotatsiya.** Ikkinchi jahon urushi yillarida sovet davlatining g'alabasida barcha sohalarda ulkan hissa qo'shgan xotin-qizlarning o'rni beqiyos bo'ldi. Shu jumladan ularning ilm-fan va madaniyat sohalaridagi xizmatlari ahamiyati mazkur maqolada tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** SSSR FAsining O'zbekiston filiali, akademik, Odessa Suv transporti instituti, Tuproqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti, Leningrad Politexnika instituti, Kiyev Industriya instituti, Xarkov Temir yo'l transporti injenerlari instituti, Moskva Arxitektura va to'qimachilik instituti

**Ismoilova Feruza Ibragimovna,**
Independent researcher of Karshi State University.

## SERVICES OF WOMEN OF UZBEKISTAN IN THE FIELD OF SCIENCE AND CULTURE DURING THE WAR

**Abstract.** During the Second World War, the role of women who made a great contribution to the victory of the Soviet state in all fields was incomparable. Including, the importance of their services in the fields of science and culture is analyzed in this article.

**Keywords**: Uzbek branch of the FA of the USSR, academician, Odessa Institute of Water Transport, Research Institute of Soil Science, Leningrad Polytechnic Institute, Kyiv Industrial Institute, Kharkov Institute of Railway Transport Engineers, Moscow Institute of Architecture and Textiles.

**Исмоилова Феруза Ибрагимовна,**
Независимый исследователь
Каршинского государственного университета.

## УСЛУГИ ЖЕНЩИН УЗБЕКИСТАНА В ОБЛАСТИ НАУКИ И КУЛЬТУРЫ В ГОДЫ ВОЙНЫ

**Аннотация.** В годы Великой Отечественной войны роль женщин, внесших большой вклад в победу Советского государства во всех областях, была несравнима. В том числе, в данной статье анализируется значимость их услуг в сферах науки и культуры.

**Ключевые слова:** Узбекское отделение ФА СССР, академик, Одесский институт водного транспорта, НИИ почвоведения, Ленинградский политехнический институт, Киевский индустриальный институт, Харьковский институт инженеров железнодорожного транспорта, Московский архитектурно-текстильный институт

DOI: https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N07

Urush yillarida qisqa muddat ichida O'zbekistondagi barcha ilmiy muassasalar faoliyati harbiy izga ko'chirildi. Ilmiy-tadqiqot muassasalariga o'z tadqiqotlari mavzularini front va

mamlakat mudofaasi ehtiyojlarini ta’minlovchi yangi rejalar bilan almashtirish vazifasi topshirildi. Harbiy texnika, xom ashyo resurslaridan foydalanishga doir tadqiqotlar uchun ajratilgan mablagʻlar koʻpaytirildi.

Respublikada bu davrda amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga SSSR FAsining Oʻzbekiston filiali (OʻzFAN) rahbarlik qildi. Urush boshlangan vaqtda Oʻzbekistonda SSSR FA Oʻzbekiston filiali va Respublika oliy oʻquv yurtlarida 2512 ta ilmiy xodim, jumladan, 400 nafar mahalliy millat olimlari, 16 ta akademik, 20 nafar FA muxbir a’zosi, 510 ta professor, 627 dotsent, 395 assistent, 176 nafar katta ilmiy xodim va 283 nafar kichik ilmiy xodim faoliyat olib borayotgan edi[6].

1941 yil 1 iyulda SSSR FA Oʻzbekiston filiali prezidiumi va partiya tashkilotining qoʻshma yigʻilishi oʻtkazilib, unda «Frontga ilmiy va amaliy yordam koʻrsatish» masalasi muhokama qilindi. Yigʻilish qarorida mudofaaga xizmat qiluvchi maqsadlarga ajratilayotgan xarajatlarni koʻpaytirish, mudofaaga aloqasi boʻlmagan harajatlarni qisqartirish haqida fikr yuritildi.

1941 yilning kuzida Oʻzbekistonga mamlakatning gʻarbiy hududlaridan 1 ta ittifoqdosh respublika Fanlar akademiyasi, 31 ta oliy oʻquv yurti va 7 ta harbiy akademiya koʻchirib keltirilib, ularning 17 tasi Toshkentga joylashtirildi[14]. Jumladan, Belorussiya FA, Odessa Suv transporti instituti, Tuproqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti, Leningrad Politexnika instituti, Kiyev Industriya instituti, Xarkov Temir yoʻl transporti injenerlari instituti, Moskva Arxitektura va toʻqimachilik instituti va boshqalar koʻchirib keltirildi. Kiyev Industriya instituti Toshkentda Oʻrta Osiyo Industriya instituti bilan birgalikda oʻz ilmiy faoliyatini davom ettirdi[13]. Mazkur institutning mexanika fakulteti xodimlarining yordami bilan Oʻrta Osiyo Industriya institutida mexanika fakulteti tashkil etildi.

Evakuatsiya qilingan oʻquv yurtlari va ilmiy muassasalarning koʻpchiligi Samarqand shahriga joylashtirildi. Samarqandda 7 ta akademiya (shu jumladan, harbiy akademiyalar), 15 ta oliy oʻquv yurti, 9 ta ilmiy-tadqiqot instituti va 20 ga yaqin texnikum faoliyat olib bordi[1].

1941 yilning kuzida SSSR FA ning Sharqshunoslik instituti, Tarix instituti, Jahon adabiyoti instituti, Moddiy madaniyat tarixi instituti va boshqa institutlar Toshkent shahriga koʻchirib keltirildi[2].

1943 yilga kelib, Oʻzbekistonda evakuatsiya qilingan 203 nafar yuqori malakali mutaxassis faoliyat koʻrsata boshladi, shundan, 13 nafari SSSR FA muxbir a’zosi va akademiklar, 128 nafar fan doktori va 62 nafar professorlar edi[7]. Ular oʻz ilmiy faoliyatlarini davom ettirib, Oʻzbekiston fani rivojiga munosib hissa qoʻshdilar.

1943 yilda Sredazselxoz VNITO (Oʻrta Osiyo ilmiy muxandis-texnika jamiyati) a’zolari tomonidan 150 ta ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish-texnik ishlari amalga oshirilib, 265 ta konsultatsiya oʻtkazildi[12]. Bu davrda qishloq xoʻjaligi sohasi olimlari oldiga paxta hosildorligini oshirishdek murakkab vazifa koʻndalang qoʻyildi. Butunittifoq paxtachilik ilmiy-tekshirish instituti, Toshkent qishloq xoʻjaligi instituti, Oʻzbekiston FA Botanika va zoologiya instituti oldiga paxtaning Amerika va Misr navlari ustida ishlash vazifasi qoʻyildi.

Oʻzbekistonning ijtimoiy-gumanitar fanlari olimlari oʻz oldilariga urush davrida qoʻyilgan murakkab vazifalarni bajarishga katta ma’suliyat bilan yondashdilar. Toʻgʻri, ular yaratgan asarlarning deyarli barchasi kommunistik mafkura hukmronligi sharoitida bajarilib, tarixiy, falsafiy qarashlarda, yaratilgan asarlarda hukmron mafkura ta’siri yaqqol seziladi.

Urush yillarida oʻzbek xalqining etnik shakllanishi tarixini oʻrganishda qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Professor A.Y. Yakubovskiy oʻzbek xalqining shakllanishi masalasida mutlaqo

yangicha ilmiy qarashni ilgari surdi. U oʻzbek xalqining hozirgi Oʻzbekiston hududida Dashtiqipchoq oʻzbeklari koʻchib kelmasdan ancha oldin tashkil topgan degan fikrni keng omma oldiga qoʻydi. Tadqiqotlar natijasida A.Y. Yakubovskiyning 1941 yilda «Oʻzbek xalqining etnogenezi masalasi toʻgʻrisida» nomli risolasi nashr etildi[16]. Tarix fani sohasida erishilgan bu natijalar juda katta ahamiyatga ega boʻldi. Oʻzbek xalqining kelib chiqishi va uning tarixiy ildizlari haqida yangi maʼlumotlar qoʻlga kiritildi.

Oʻzbekistonda urush yillarida 43 ta oliy oʻquv yurti va 52 ta texnikum faoliyat olib bordi, ularda 41502 nafar talaba taʼlim oldi[8]. 1942 yil 15 mayda VKP(b) MK va SSSR XKS «1942 yilda oliy oʻquv yurtlariga qabul qilish va oliy oʻquv yurtlarini mustahkamlashga doir tadbirlar toʻgʻrisida»gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq oliy oʻquv yurtlariga kirish tartibiga oʻzgarishlar kiritildi. 1941-1942 oʻquv yilini «yaxshi» va «aʼlo» baholarga tugatgan oʻrta maktab oʻquvchilari institut va universitetlarga imtihonsiz qabul qilindi. Shu bilan birga shu oʻquv yilida armiya va harbiy dengiz flotida hizmat qilib yaralangan yoki kasallangan talabalarga stependiyalar joriy etildi[5]. Ammo talabalar safida mahalliy millat vakillari juda kamchilikni tashkil etdi.

Oʻzbekistonda urush yillarida 43 ta oliy oʻquv yurti va 52 ta texnikum faoliyat olib bordi, ularda 41502 nafar talaba taʼlim oldi[8]. 1942 yil 15 mayda VKP(b) MK va SSSR XKS «1942 yilda oliy oʻquv yurtlariga qabul qilish va oliy oʻquv yurtlarini mustahkamlashga doir tadbirlar toʻgʻrisida»gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq oliy oʻquv yurtlariga kirish tartibiga oʻzgarishlar kiritildi. 1941-1942 oʻquv yilini «yaxshi» va «aʼlo» baholarga tugatgan oʻrta maktab oʻquvchilari institut va universitetlarga imtihonsiz qabul qilindi. Shu bilan birga shu oʻquv yilida armiya va harbiy dengiz flotida hizmat qilib yaralangan yoki kasallangan talabalarga stependiyalar joriy etildi[5]. Ammo talabalar safida mahalliy millat vakillari juda kamchilikni tashkil etdi.

Urush yillarida Toshkent tibbiyot instituti 2122 nafar malakali shifokor tayyorlab berdi[4], shundan 215 nafari mahalliy millat vakillari edi[3]. Mazkur oʻquv yurtining koʻplab professor-oʻqituvchilari harakatdagi armiya saflariga ketdi. D.A. Vvedenskiy, A.M. Geller, L.D. Vasilenko, B.A. Stekolnikov, M.A. Ashrapova, S.A. Dalimov, D.N. Maksumov, A. Umarov, V.S. Karuxina, L.I. Vaskovskaya, A.B. Babayan va boshqalar shular jumlasidandir. Institutdan 400 ga yaqin professorlar, oʻqituvchilar, hizmatchilar urushdagi jasorati uchun davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

Xullas, urush yillarida Oʻzbekistonda juda qisqa muddat ichida ilmiy muassasalar va xodimlar faoliyati davlat talabi va front ehtiyojlarini qondirishga yoʻnaltirildi. Ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy oʻquv yurti ilmiy xodimlari partiya va davlat koʻrsatmasiga muvofiq tadqiqot olib borib, ilmiy ish mavzulari va rejasi yangi sharoitga moslashtirib oʻzgartirildi. Ilmiy muassasalar oldiga mudofaa ahamiyatiga ega muammolar ustida ishlash, xususan, harbiy texnikani takomillashtirish, sanoat va qishloq xoʻjaligi xodimlariga ilmiy-texnikaviy yordam berish, yangi ishlab chiqarishni oʻzlashtirishni yaxshilash, kamyob mahsulotlar oʻrnini bosuvchi mahalliy xom ashyoni ishlab chiqarish kabi murakkab vazifalar qoʻyildi.

Urushning dastlabki oylarida madaniy-maʼrifiy muassasalarning koʻpchiligi oʻz faoliyatini toʻxtatdi, chunki 1941 yilda Oʻzbekistonda mavjud 994 ta madaniy-maʼrifiy muassasalardan faqat 699 tasi qoldi, ular uchun ajratilgan mablagʻ 16 mln. rubldan 8,7 mln. rublga kamaydi[15]. Urushning dastlabki kunlaridan “Hamma narsa front uchun, hamma narsa

gʻalaba uchun” shiori birinchi oʻrinda turib, nafaqat boshqa sohalar balki madaniy-maʼrifiy muassasalar uchun ajratilgan mablagʻlar ham qisqartirildi.

Urush tufayli madaniy-maʼrifiy muassasalar tarmogʻi keskin qisqardi. 1940 yilda Oʻzbekistonda 2859 ta klub muassasasi ishlab turgan edi. 1943 yilda 1940 yildagiga nisbatan madaniy-maʼrifiy muassasalar 500 taga qisqardi. Jumladan, Oʻzbekiston qishloqlarida 221 ta kutubxona yopildi[10].

1943 yil madaniy-maʼrifiy muassasalar 1940 yilga nisbatan 500taga, ajratilgan mablagʻ esa ikki martaga qisqardi. Bundan tashqari, 1943 yilda respublikada 168 ta klub binolari boshqa tashkilotlarga olib berildi.

Shu yili respublikada 7 ta viloyat madaniyat uylari, 125 ta klub, 325 ta oʻquv zali, 234 ta tuman va shahar kutubxonasi faoliyat olib borgan boʻlsa, 1944 yilda kutubxonalar soni 433 tani tashkil etdi, klub muassasalari soni 1044 taga yetdi. Qashqadaryo viloyati Dasht qishloq kengashiga qarashli «Oktabr 14 yilligi» dehqon xoʻjaligida tashkil etilgan PVXO toʻgaraklarida 480 kishi ishtirok etdi. Umuman, viloyatning Qarshi tumani boʻyicha 178 nafar xotin-qiz GTO, BGTO normasini bajardi. Bu toʻgaraklarda 120 ta snayperchi, 12 ta aloqachi, 5 nafar pulemyotchi tayyorlandi.

Urushning dastlabki yillarida madaniy-maʼrifiy muassasalarda badiiy havaskorlik toʻgaraklari soni qisqarib, ularning chiqishlari kamaydi. 1941 yilda badiiy havaskorlik toʻgaraklari tomonidan respublikada 408 ta konsert, 75 ta spektakl qoʻyilib, ularda 35 ming nafar havaskor ishtirok etdi. 1943 yilga kelib badiiy havaskorlik jamoalari koʻpaydi. Shu yili ular tomonidan 2200 ga yaqin kechalar oʻtkazildi[15].

Viloyat, shahar va tuman markazlarida foaliyat olib borgan madaniyat uylari joylarda madaniy-maʼrifiy tadbirlarning asosiy tashkilotchisi boʻldi. Bu turdagi madaniyat muassasalari oliy oʻquv yurtlari, maktablar, teatrlar, kutubxona va muzeylar bilan hamkorlikda faoliyat olib bordilar.

Qishloqlarda esa klub muassasalarining faoliyati jonlantirilib, ular zimmasiga ogʻir va murakkab vazifalar yuklandi. Klub xodimlari oddiy mehnat ahliga mamlakatda kechayotgan siyosiy jarayonlarning mohiyati, nemis-fashistlarining haqiqiy basharasi, front voqealari, jangchilarning qahramonligi, mamlakat ichkarisida mehnatkashlarning olib borayotgan fidokorona mehnati va boshqalar toʻgʻrisida maʼlumot berib turishlari talab etildi. Vazifani bajarish uchun klub xodimlari tashviqot va targʻibotning turli usul va vositalaridan foydalandilar, suhbat, maʼruza, ovoz chiqarib oʻqish, plakatlar, fotomontajlar namoyish etish shular jumlasidandir. 1942 yilda Samarqand viloyatining Jizzax va Zomin tumanlaridagi klublarda 14 ta tashviqot brigadalari faoliyat olib bordi. Samarqand shahridagi Chkalov nomli bosmaxonaning klubida rus va oʻzbek tillaridagi shiorlar, rangli plakat va karikaturalar, mudofaa ishlariga doir koʻrgazmali qoʻllanmalar keng tarqatildi. Tashviqot punkti tuman siyosiy tashviqot va mudofaa ishlarining markaziga aylandi.

Ayollar oʻrtasida ham uzluksiz ravishda tashviqot va targʻibot ishlarining kuchaytirilishi natijasida koʻplab uy bekalari xalq mudofaa fondini barpo etishda, askarlar uchun issiq kiyimlar tikish, frontga koʻplab kiyim-bosh yuborishda asosiy tashkilotchi boʻldilar. Masalan, Samarqand shahar ayollari 30 ming soʻmlik davlat zayomi obligatsiyalarini yigʻdilar va jangchilarga 10 ta posilka joʻnatdilar[9].

1940 yilda Oʻzbekiston hududida jami muzeylar soni 17 ta boʻlib, ularning 12 tasi oʻlkashunoslik, 1 ta tarixiy, 1 ta tabiiy-ilmiy, 1 ta sanʼatshunoslik va 2 ta boshqa sohalarga oid

edi[11]. Urush munosabati bilan respublika muzeylar tarmog‘i keskin qisqardi. O‘zbekiston tarixi, madaniyati va san’ati muzeyi nomi ostida san’at, adabiyot va O‘zbekiston tarixi, tabiat muzeyi bilan birga politexnika muzeylari birlashtirildi. Muzey ko‘rgazmalari namoyishi to‘xtatilib, ilmiy-tadqiqot foaliyati va shtatlari qisqartirildi.

Kutubxonalar madaniy-ma’rifiy sohaning asosiy tarkibiy qismi sifatida doimiy ravishda faol ish olib bordilar. Urush arafasida O‘zbekistonda 1792 ta ommaviy kutubxonalar bo‘lib, ularda 2553 ming kitob saqlangan. Bu kutubxonalarning 497 tasi shaharda, 1295 tasi qishloqlarda faoliyat olib bordi[10].

Xullas, Madaniy-ma’rifiy muassasalar zimmasiga juda murakkab va mas’uliyatli vazifalar qo‘yilishiga qaramay, soha moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalasi e’tibordan chetda qoldirildi va klublar, kutubxonalar, muzeylar binolari boshqa tashkilotlarga bo‘shatib berildi. Ajratilayotgan mablag‘ urushdan oldingi davrga nisbatan 50 foizga qisqartirildi.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Алимова Д.А., Буряков Ю.Ф, Рахматуллаев Ш.М. Самарқанд тарихи (Қадимги даврлардан бугунги кунгача). –Т.: ART FLEX. 2009. 51-Б.
2. Вклад трудящихся Узбекистана в победу в Великой Отечественной войне. –Т.: Фан. 1975. –С. 126.
3. Джураев А.Д. Ташкентский медицинский институт.(1919-1964). –Т.: 1966. –С. 26-27.
4. Здравоохранение в Узбекской ССР. (Ст.сб.). –Т.: 1958. –С. 157.
5. История Великой Отечественной войны Советского Союза 1941-1945гг. В-6-ти. Т.2. –С. 544.
6. Калымбетов Ж. Коммунистическая партия Узбекистана в борьбе за развитие промышленности и транспорта в годы Великой Отечественной войны. –Т.: 1958. –С. 135.
7. Каттабоев А.Х. Сотруднечество Советского Узбекистана с Российской Федерацей в области науки и культуры в период завершения строительства социализма. (1938-1960гг). Автореф…дисс. канд.ист.наук. –Т.: 1985. –С. 14.
8. Культурное строительство в СССР.//ст.сб/. Госиздат. 1956. –С. 208-209.
9. Ленин йўли, 1941. 11 сентябрь.
10. Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. (Ст.сб.). –Т.: Узбекистан, 1967. –С. 226-227.
11. Народное хозяйство Узбекской ССР за 70 лет Советской власти. –Т.: Узбекистан, 1987. –С. 280.
12. Правда Востока, 1943. 31 октября.
13. Правда, 1942. 10 март.
14. Советская интеллигенция Узбекистана. Кн 2. –Т.: 1979. –С. 78.
15. Ўзбекистон Республикаси 1941-1945 уруш йилларида. // Илмий ишлар тўплами. –Қарши.: 1995. –Б. 106.
16. Якубовский А.Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. –Т.: Узбекистан. Фан. 1941г.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

## *№ 8 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
**Боғланиш учун телефонлар:**
(99) 602-09-84 (telegram).